

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60410800-Menejment bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	8
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	10
	Bibliografik ma'lumotlar	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60410800 – Menejment ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. (Oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno). Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60411800 – Menejment ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va sillabuslarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

baklavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

“Biznes, boshqaruv va huquq” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy, moliya, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari va uslublari bilan bog'liq masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar; iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilotlar, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari; iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga

oshirish jarayonlari; tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari; firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi korxonalarni boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatini ta'minlash; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari; mehnatni tashkil etish va boshqarish, tashkilot va xodimlar boshqaruvini tuzish jarayonlari; ishchilarni kasbiy malakasiga qarab pog'onalarga ajratish, faol ishchilarni boshqaruv masalalarini yechishga jalb qilish jarayonlari; o'z-o'z boshqarishni rivojlantirish, o'zini ish uslubini takomillashtirish jarayonlari; kichik biznesni mohirona boshqarish bozor raqobatiga dosh berish, muammolarni yechish jarayonlari; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, ulardan foydalana olish, boshqaruv psixologiyasi jarayonlari.

60410800 – Menejment bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60411800 – Menejment ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalaridagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlar tizimiga ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatda ularni hisobga olib bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi; rejalashtirish ishlarini tashkil etishi;

xo'jalik yurituvchi sub'ektni xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqishi;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini qo'llay olishi;

ishlab chiqarishning texnologik asoslarini bilishi;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar texnika-iqtisodiy hisob-kitoblari va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishi;

mehnatni muhofaza qilish me'yorlari va qoidalariga amal qilish.

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qila olishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishini tashkil qilishi va uni boshqarishi;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzishi va uni bajarishi, nazorat qilishi va amalga oshirgan ishining natijalarini baholashi lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;

tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldini olish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'linmalarini tashkil etish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatida:

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

o'z biznesini yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni topish, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxonalar (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

strategik va tezkor rejalashtirish, ishni samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;

makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatiga tegishli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifat tahlili qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

moliyaviy siyosat va tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlar qabul qilish uquviga ega bo'lish;

biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes yo'nalishlarini shakllantirishni bilish;

mehnatni tashkil etish va boshqarish, tashkilot va xodimlarni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ishchilarni kasbiy malakasiga qarab pog'onalarga ajratish, faol ishchilarni boshqaruv masalalarini yechishga jalb qilishni bilish;

o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirish, o'zini ish uslubini takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

kichik biznesni mohirona boshqarish, bozor raqobatiga dosh berish, muammolarni yechish ko'nikmalariga ega bo'lish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, ulardan foydalana olish, boshqaruv psixologiyasini bilish;

yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish bo'yicha ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1, 2
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	XT11106	Xorijiy til 1 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	180	6	1
1.05	XT21204	Xorijiy til 2 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	120	4	2
1.06.	BK1105	Biznesga kirish	150	5	1
1.07	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.08	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.09	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.11	AKKK1204	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	2
1.12	ECOANA315	Iqtisodiy tahlil	120	5	3
1.13	FAL1305	Falsafa	120	4	3
1.14	STAT1305	Statistika	180	6	3
1.15	MIKIQ1310	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.16	EKMET1310	Ekonometrika	150	5	3
1.17	INTMAN6	Menejmentga kirish	150	5	4
1.18	ORGBEH6	Tashkiliy hulq	150	5	4
1.19	QUAMAN6	Sifat menejmenti	150	5	4
1.20	MARKET415	Marketing	150	5	4
1.21	OPEMAN6	Operatsion menejment	150	5	4
1.22	ICHT1405	Ishlab chiqarish texnologiyalari	150	5	6
1.23	STRMAN6	Strategik menejment	150	5	5
1.24	FIN1505	Moliya	150	5	5
1.25	MARTECA6	O'rta osiyoda bozor nazariyasi va tajribasi	150	5	6
1.26	PROMAN6	Ishlab chiqarish menejmenti	150	5	5
1.27	E30940134	Iqtisodiy xavfsizlik	150	5	5
1.28	INNMAN6	Innovatsion menejment	150	5	6
1.29	RESMS6	Tadqiqot usullari va ko'nikmalari	150	5	6
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	3-7
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	3-7
Kvalifikatsiya		Menejer			
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	900	30	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, kompetensiya, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Rektor T.Z. Teshabayev

2024 yil " 13 "

M.O.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M.R. Boltabayev

2024 yil " 25 " 06

M.O.



Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti

Rektor D. Vaxabov

2024 yil " 11 " 06

M.O.



"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi
boshqaruvi

Rais M.M. Sultonov

2024 yil " 19 " 06

M.O.



"O'zbekiston marketing uyushmasi"
boshqaruvi

Rais D.A. Mirzaaxmedov

2024 yil " 20 " 06

M.O.

